

PEDAGOGIK TA'LIMNI TASHKIL ETISH BOSQICHLARI**Nomozova Shoira Bozorovna****Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahri****17-son umumiy o'rta ta'lim maktabi****boshlang'ich sinf o'qituvchisi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.8042934>**

Kalit so'zlar: pedagogika, jarayon, predmet, tamoyil, didaktik tamoyil, integratsiya, integrativ kurslar, integrativ tamoyillar, nazariya, integrativ yondashuv.

Pedagogik jarayonlar juda serqirradir. Pedagogik jarayonlarni tashkil etishda juda ko'p jihatlarni hisobga olish lozim.

Pedagogik jarayonining integratsiyalashuvi nafaqat nazariy va metodik o'quv jarayonini bir butun sifatida amalga oshirishni, balki jarayonning samarali olib borilishini ham ta'minlaydi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayonining serqirra va o'ziga xosligini inobatga olgan holda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda metodik fanlarni integratsiyalash nazariy-metodik tayyorgarlik jarayonining samarali kechishini ta'minlaydi.

Turli fan elementlarini yaxlit holda birlashtiruvchi hamda o'ziga xos o'rganish predmetini o'z ichiga olgan holda fanlarni xususiyatlariga ko'ra boglovchi kurslar integratsiyalashgan kurslarning mazmunini anglatadi [1].

Pedagogikada integratsiyalashgan kurslar tasnifini turli xususiyatlariga ko'ra amalga oshirish mumkin: kursning maqsad va muammolariga ko'ra; tabiiy-ilmiy tizimdagi fanlarning umumiy vazifalariga ko'ra; fan tarmoqlarining o'zaro aloqadorligiga ko'ra; o'quv predmetlarining integratsiyalash usullari va yo'llariga ko'ra; fanlarning o'quv rejasidagi o'rniga ko'ra; o'quv predmetlari yoki mavzularini o'rganish uchun ajratilgan vaqtga ko'ra; beriladigan bilimlarning murakkablik darajasiga ko'ra va h. k.

O'quv predmetlarini tasniflashda va ulardan foydalanishda shuni e'tiborga olish kerakki, bu kurslarni tashkil etuvchilar odatda bir qancha maqsad va vazifalarni qo'yadilar.

Shu sababli kurslar integratsion kursning maqsad va vazifalari tabiiy-ilmiy bilimlarni o'zlashtirilishiga ko'ra tavsiflanadi. Bilimning o'quv rejasidagi o'rnini, ajratilgan soatlarning hajmi, shu kursni to'la o'zlashtirish vaqti, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi – ko'p maqsadli va xilma-xilligi, ko'p tarmoqliligi hamda ko'p funktsionalligi bilan tavsiflanadi.

Didaktik tizimda integrativ darslar bir nechta yo'nalishlarda ifodalanadi:

fanlararo integratsiya – bunda ikki yoki undan ortiq asosiy fanlar g'oyalari, nazariya va tushunchalari birlashtiriladi, integratsiyali rejalashtirish orqali amalga oshiriladi;

yondosh fanlar integratsiyasi – o'zaro yaqin aloqada bo'lgan fanlarni integratsiyalash asosida yangi fanlarni vujudga keltirish. Buning asosida yangi tabiiy hamda ilmiy fanlar vujudga keladi;

fundamental fanlar integratsiyasi – zamonaviy bilimlarning barcha tarmoqlari uchun asos bo'luvchi fanlar va ushbu fanga tegishli bo'lgan umumiy ilmiy tushunchalar, qoidalar va nazariyalarni integratsiyalash;

Integratsion kurslarning tashkil etilishi talabalarni nazariy-metodik tayyorgarligi davomida quyidagi tafakkur shakllarini hamda nazariy-metodik [2] malakalarni tarkib toptirishga yordam beradi:

- tabiiy obyektlar haqida ma'lumot berish orqali o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirish;

- pedagogik – psixologik tizimda fanlararo o‘zaro aloqani shakllantirish;
- o‘quv materiallarini anglash, jarayonga moslashish ko‘nikmasini shakllantirishda yangi materialni tushuntirishda manbalarni turli fanlar kontekstidan izlash;
- mutaxassislik fanlarini o‘qitishda integrativ kursilarni tizimli yo‘lga qo‘yish;
- mutaxassislik fanlarini o‘qitishda talabalarning kompleks bilimlarini shakllantirish integrativ usul va vositalar orqali amalga oshirib borilishini ta‘minlashga erishish.

Boshlang‘ich sinf o‘quv predmetlari o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘quvchi bilim o‘zlashtirishlari, dunyoqarashini rivojlantirish, shuningdek, shaxs sifatlarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bir-biri bilan aloqador o‘quv predmetlari tabiiy va ilmiy xodisalar, voqealar, jarayonlar to‘g‘risida kompleks tushunchalarga ega bo‘lishadi. Mazkur bilim, ko‘nikmalarni egallashda o‘qitishning tarixiylik tamoyiliga asoslanadi. Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o‘quv fanlarini o‘rganish jarayonida fanlararo aloqadorlik [3] asosida matematika bilan bog‘liq tarzda o‘tmishdagi buyuk shaxslarning tug‘ilgan va yashab o‘tgan vaqti, asarlari yozilgan sanalar, jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan ilmiy merosi va axloqiy qarashlari bilan o‘quvchilar tanishtiriladi. Bunda o‘quvchilar xotirasi, his-tuyg‘usiga ta‘sir ko‘rsatishi, o‘z-o‘zini tarbiyalashida matematik tushunchalarning o‘rni beqiyosdir.

Didaktikada dars jarayonida yangi mavzuni tez va sifatli o‘zlashtirish taqozo etiladi. Zero, o‘quv jarayonini jadallashtirish tamoyili qisqa va mazmunli dars o‘tishga borib taqaladigan didaktik hodisadir. Fanlararo aloqadorlik asosida har bir dars jarayonida bir necha darslarning o‘xshash mavzularidan misollar keltirib, foydalanish ko‘p vaqtni talab qiladi. Biroq ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o‘quv predmetidan dars beradigan o‘qituvchi bir soatlik dars jarayonida o‘rganilayotgan mavzuni nihoyatda vaqtni tejagan holda, tez va mazmunli tarzda o‘quvchilar ongiga yetkaza olishi, ular xotirasida o‘tilgan mavzuning asosiy komponentlarini saqlanib qolinishiga erishishi lozim.

Dars jarayonida hosil qilinadigan motivatsiya murakkab pedagogik hodisa bo‘lib, u o‘quvchilarning xulqi, intilishlari, qiziqish va mayllariga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o‘quv fanlarining o‘rganilishida ushbu tamoyildan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi dars jarayonida fanlararo aloqadorlikdan foydalangan holda motivatsiyaning quyidagi uchta-uyg‘otuvchi, yo‘naltiruvchi, fikr uyg‘otuvchi vazifalaridan foydalanadi. Bunda matematik tushunchalarning qo‘llanilishi o‘quvchilarda o‘rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otadi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va o‘rganilgan mavzuni xotirada saqlanishiga imkoniyat yaratadi [4].

Matematik tushunchalar asosida ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o‘quv fanlarini bir-biri bilan o‘zaro bog‘lash, ularning mantiqiy aloqadorligi va mazmundorligi taqdim etilayotgan o‘quv mashg‘ulotining mohiyatini tushunib olishga yordam beradi.

Bir qator o‘quv predmetlari doirasida o‘zlashtirilgan g‘oyalar, tushunchalar har bir fan mohiyatini ifodalovchi xususiyatlar, vositalar, qonuniyatlar, o‘zaro aloqadorlik jihatlarini hisobga olinishi lozim. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarish davomida fanlardan olingan bilimlarini qo‘llay olishlari olishlari kerak. (masalan, Savdogar “Berton” olxuri ko‘chatini ekkandan keyin uning to‘liq hosilga kiradigan vaqtida savdo qilish uchun safarga chiqadi. U qancha vaqt oralig‘ida safarga chiqadi, tabiatshunoslik, matematika, tarbiya fanlaridan olingan bilimlar orqali muammo hal qilinadi).

O‘quv materiallari hajmini belgilashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bu albatta, o‘quvchilarning idrok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Jismoniy va aqliy

mehnat o'quv materiallarini idrok etish jarayonining rag'batlantiruvchi omili ekanligini hisobga olishi lozim. Shuning uchun o'quv jarayonini o'quvchilarning yoshi va fiziologik imkoniyatlari hisobga olingan holda tashkil etiladi. Ularda o'quv materialiga nisbatan qiziqish uyg'otish va diqqatini o'zlashtirishga jalb etish darkor. O'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari muntazam murakkablashib, o'quv va amaliy masalalarni yechish jarayonida kengayadi. Ushbu murakkablashish ularning aqliy va jismoniy rivojlanishlarida muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari bo'yicha darslarda o'quv fanlariaro aloqadorlik matematika asosida amalga oshiriladi. O'qitishning fanlararo aloqadorlikka asoslangan tizimi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bilan uzviy bog'liqdir.

O'qitish jarayonida ushbu tamoyillarni amalga oshirish uchun faqatgina nazariy bilimlarning muayyan hajminigina emas, balki uning ilg'or sohalari, asosiy kasblar [5], o'qitish texnologiyasini rivojlantirish tendensiyalari, iqtisod va mehnatni mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi bilan mos ravishda tashkil etish asoslari haqidagi bilimlarni ham taqdim etish zarurdir. O'quvchilarga turli kasblar haqidagi ma'lumotlarni birgina fan o'qituvchisi yetkazib bera olmaydi. Bu muammoni hal etishda barcha o'quv fanlarining o'qituvchilari birgalikda fanlararo aloqadorlikni ta'minlagan holdagina muvaffaqiyatga erishish mumkin.

- falsafiy, umumpedagogik, didaktik, psixologik va metodik manbalar tahlili asosida boshlang'ich sinf o'quv predmetlarini o'qitish metodikalarini integratsiyalab o'qitish talabalarining pedagogik tayyorgarligida quyidagi funksiyalarni amalga oshirishini aniqladik:

- pedagogik turkumdagi fanlar tizimi asosida metodik fanlarning umumiy asoslarini belgilash va tizimlashtirish funksiyasi;

- metodik fanlarning o'zaro bog'liq jihatlarini o'rganish va faoliyatda foydalanish funksiyasi;

- fanlardagi aloqadorlik jihatlarini integrativ kursda foydalanish orqali o'rganiladiga material to'g'risida yaxlit tasavvurni hosil qilish funksiyasi;

- fanlarning uslubiy xarakterini o'rganish asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini tizimli ta'minlash funksiyasi;

integrativ kurslar asosida talabalarining metodik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga hissiy-axloqiy va shaxs sifatlarini ham rivojlantirish jarayonini jadallashtirish.

Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari bo'yicha darslarda o'quv fanlariaro aloqadorlik matematika asosida amalga oshiriladi. O'qitishning fanlararo aloqadorlikka asoslangan tizimi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bilan uzviy bog'liqdir.

Muammoli yo'naltirish ta'limga izlanishli yondashuvni amalga oshiradi, bu birinchi navbatda talabalarining yangi bilimlarni mustaqil izlash tajribasini shakllantirish, ularni yangi sharoitda qo'llash, ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirishni o'z ichiga oladi. O'quv jarayoni uning tadqiqot xarakterini ta'minlashga, o'quv va izlanish faoliyatni qidirishni tashkil etishga qaratilgan. Qidiruv - bu yangi bilimlarni faol egallash, kashf qilish va nihoyat, o'zlashtirish. Qidiruv yo'nalishi bilan bog'liq ta'limning turli innovatsion modellari uchun umumiy asos - bu mavzudan tashqari qidiruv o'quv faoliyati, ya'ni, talabalar o'z ta'lim bilimlarini qurish uchun maxsus faoliyatdir. Uning turlaridan biri tadqiqot faoliyati bo'lib, u tizimli tadqiqotlarni o'z ichiga oladi (muammoni bayon qilish, gipotezalarni taklif qilish va tekshirish, g'oyalarni yaratish va boshqalar) [6].

Mavzudan tashqarilik o'quv faoliyatining muayyan o'quv materiali doirasidan tashqariga chiqishida namoyon bo'ladi.

Muammoni hal qilish bilan bog'liq real vaziyatlarni modellashtirish o'qitishda o'ziga xos empirik an'anaga aylandi. Tadqiqotlar, agar o'qituvchilar va talabalar uchun maqsad va qadriyatlar hali o'zlashtirilmagan bilim yoki faoliyatning yangi sohalarini o'zlashtirish qobiliyati bo'lsa, ushbu o'rganish usulining maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

O'qitishdagi tadqiqot yo'nalishining bir qismi sifatida o'quv jarayoni ilmiy izlanishlar va yangi bilimlarni izlash jarayonini ideal tarzda takrorlashi kerak. Bunday tushunish bilan talaba o'qituvchi tomonidan ozmi-ko'pmi tashkillashtirilgan (boshqariladigan) bilish jarayonida tushunchalar va muammolarni hal qilishga qaratilgan yondashuvlarini o'zi o'zlashtirgan vaziyatga moslashtiriladi. Ko'pgina didaktik ishlanmalar ushbu tushunchani talabaning muammoni hal qilishning turli jihatlariga nisbatan mustaqillik darajasi bilan aniqlaydi.

Tadqiqot ta'limining uch bosqichi mavjud. Birinchi bosqichda o'qituvchi muammo qo'yadi va uni hal qilish usulini belgilaydi. Talabalar muammoni o'zlari hal qiladi va uni tahlil qiladi. Ikkinchi bosqichda o'qituvchi faqat muammoni qo'yadi, usul va yechimni tanlash talabalar tomonidan amalga oshiriladi. Va oxirgi uchinchi bosqich muammoni shakllantirishdan tortib uni hal qilishgacha bo'lgan to'liq o'rganishga to'g'ri keladi.

Talabalarning tajribasi ko'pincha o'qituvchilarga ta'limda tadqiqot maqsadlarini belgilash uchun boshlang'ich nuqta sifatida xizmat qilish uchun juda cheklangan ko'rinadi. Tadqiqot ta'limining asosiy yo'nalishidagi xarakterli tendentsiyalardan biri talabalarning hayotiy ehtiyojlari va qiziqishlari bilan bog'liq muammolarni o'rganishdir.

Ta'lim muammolarining ahamiyati uchun quyidagi mezonlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin [7]:

1. Muammolar aynan shu talabalar guruhining ehtiyojlari va qiziqishlariga mos kelishi kerak.
2. Muammolarni tanlashda talabalar ishtirok etishlari shart.
3. Muammo turli yechimlarga imkon berishi, shu orqali qaror qabul qilish mexanizmlarini faollashtirishi kerak.
4. Muammo bir guruh talabalarning sa'y-harakatlarini oqlash uchun yetarlicha umumiy va takrorlanuvchi bo'lishi kerak.
5. Muammolar butun sinfning qiziqishini ta'minlash uchun jiddiy bo'lishi kerak.
6. Muammolar yoshga mos bo'lishi kerak.
7. Yechim uchun materiallar mavjud bo'lish kerak.
8. Muammolar bir o'quv predmetidan tashqariga chiqishi kerak.

Xulosa qilib aytganda o'qitish jarayonida ushbu tamoyillarni amalga oshirish uchun faqatgina nazariy bilimlarning muayyan hajminigina emas, balki uning ilg'or sohalar, asosiy kasblar, masalalarni modellashtirish, o'qitish texnologiyasini rivojlantirish tendentsiyalari, iqtisod va mehnatni mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi bilan mos ravishda tashkil etish asoslari haqidagi bilimlarni ham taqdim etish zarurdir [8]. O'quvchilarga turli kasblar haqidagi ma'lumotlarni birgina fan o'qituvchisi yetkazib bera olmaydi. Bu muammoni hal etishda barcha o'quv fanlarining o'qituvchilari birgalikda fanlararo aloqadorlikni ta'minlagan holdagina muvaffaqiyatga erishish mumkin.

References:

1. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari: Ped. fan. dok. diss... -Toshkent: TDPU, 2006. - 263 bet.
2. Shadiyev R.D. Methods and Forms to Ensure Understanding in Educational Process. Eastern European Scientific Journal. DOI 10.12851/EESJ201805.www.aurisverlag.de.
3. Muslimov N. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f. doktori darajasini olish uchun dissertatsiya. - Toshkent, 2007.- 337 bet.
4. Musayev O.Q. Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik qobiliyatlar kompleksini takomillashtirish: ped. bo'y. fal. dok. (Phd) diss. -T., 2016. - B.66.
5. Primov T.I. Matematik modellashtirishning umumiy prinsiplari. «Экономика и социум», Выпуск №2(81) часть 1 (февраль, 2021).
1. 6.Primov T.I., Qurbonov S.Z. Matematik modellarni tuzishda variatsion tamoillar. "Academic Research in Educational Sciences". 2021, Volume 2, Issue 4.
6. T. Primov. Axborot modellashtirishni o'rgatishda o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish. Наука и инновация 1 (11), 153-157
7. Rajabov A. O'qitish jarayonida integrativ tashkil etuvchilarni aniqlash. Qardu xabarлари, 2021 yil dekabr.



INNOVATIVE
ACADEMY